



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY O‘ZLIKNI ANGLASH JARAYONIDA FARABIY ASARIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI.

Ismailova Nilufar Isroildjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada Abu Nasr Forabiyning falsafiy qarashlari hamda ularda kasbiy o‘zlikni anglash tushunchasining kasbiy deontologiya va pedagogik identitet bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy identitetini shakllantirishda Abu Nasr Forabiyning asarlaridagi gumanistik g‘oyalardan foydalanish metodikasi tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida talabalarning kasbiy ideallari va deontologik tayyorgarligi o‘rtasidagi integratsion aloqadorlik mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Abu Nasr Forabiy, pedagogik identitet, kasbiy o‘zlik, deontologiya, integrativ yondashuv, "Fozil odamlar shahri", metodika.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ФАРАБИ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Исмаилова Нилуфар Исроилджановна

Наманганский государственный педагогический институт, доцент

Аннотация

В данной статье анализируются философские взгляды Абу Насра аль-Фараби и взаимосвязь понятия профессионального самосознания с профессиональной деонтологией и педагогической идентичностью. Исследована методика использования гуманистических идей в трудах Аль-Фараби при формировании профессиональной идентичности будущих педагогов. В процессе исследования проанализированы механизмы интеграционной связи между профессиональными идеалами студентов и их деонтологической подготовкой.

Ключевые слова: Абу Наср аль-Фараби, педагогическая идентичность, профессиональное самосознание, деонтология, интегративный подход, «Трактат о взглядах жителей добродетельного города», методика.

METHODOLOGY OF USING FARABI'S WORKS IN THE PROCESS OF DEVELOPING PROFESSIONAL SELF-AWARENESS OF FUTURE TEACHERS

Ismailova Nilufar Isroildjanovna

Namangan State Pedagogical Institute, Associate Professor

Abstract

This article analyzes the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi and the correlation between the concept of professional self-awareness, professional deontology, and pedagogical identity. It explores the methodology of utilizing humanistic ideas from Al-Farabi's works in shaping the professional identity of future educators. The study examines the mechanisms of the integrative relationship between students' professional ideals and their deontological preparation.

Keywords: Abu Nasr al-Farabi, pedagogical identity, professional self-awareness, deontology, integrative approach, "The City of Virtuous People", methodology.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlashning ustuvor vazifasi nafaqat ularga bilim berish, balki ularda "kasbiy Men" konsepsiyasini shakllantirishdan iborat. Pedagogik

identitet — bu talabanning o‘zini o‘qituvchi sifatida anglash darajasi bo‘lib, u kasbiy qadriyatlar va etik me‘yorlar bilan chambarchas bog‘liq. Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy o‘z asarlarida muallimni “jamiyatning ma‘naviy rahbari” sifatida ta‘riflaydi. Biroq bugungi kunda pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida Forobiy merosidan foydalanish ko‘pincha quruq nazariy ma‘lumot berish bilan cheklanib qolmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi Forobiy g‘oyalarini talabalar ongiga singdirishning amaliy uslubiyotini ishlab chiqishdan iborat.

Forobiyning fikricha, insonning bilishi ruhiy qobiliyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, miya ruhiy faoliyatni boshqaradi, yurak esa barcha a‘zolarini hayot uchun zarur qon bilan ta‘minlaydi; barcha ruhiy quvvatlar, jumladan, bilish qobiliyati muayyan a‘zoga bog‘liq [1, 66-bet]. Forobiy bilish jarayonini ikki bosqichga bog‘laydi va aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kelmasligini alohida ta‘kidlaydi. Xususan, “Aql ma‘nolari haqida” risolasida u aql masalalarini chuqur talqin qiladi. Forobiy fikricha, aql bir tomondan ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan esa tashqi ta‘sir, ya‘ni ta‘lim va tarbiyaning natijasidir. Shu bilan birga, u aqlni faqat insonga xos bo‘lgan tug‘ma quvvat, ruhiy kuch bilan bog‘laydi [1, 67-bet]. Shu sababli Forobiy aql va ma‘naviy tarbiyani inson kamolotining o‘zaro bog‘liq ikki asosiy omili sifatida talqin qiladi.

Uning bilish haqidagi ta‘limotida mantiq ilmi muhim o‘rin tutadi. Forobiyning ta‘kidlashicha, “Mantiq san‘ati kishiga shunday qonunlar haqida ma‘lumot beradiki, bu qonunlar vositasida aql chiniqadi va inson sog‘lom fikr yuritishga o‘rganadi” [2, 77-bet]. Aynan mantiq kishining har tomonlama kasbiy rivojlanishi va pedagogik identitetning yanada teranlashishiga yordam beradigan vosita sifatida qaraladi.

Forobiy insonning bilishi, ilm-fan va aql haqidagi falsafiy qarashlarini ilgari suradi. U insonni ba‘zan “aqli hayvon” deb atasa-da, “aqli inson” tushunchasini aniq belgilaydi. Forobiyning so‘zlariga ko‘ra: “Aqli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste‘dodga ega bo‘ladi va yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradi. Bunday kishilarni oqil deyдилar. Yomon ishlarni o‘ylab topishga zehn-idrokka ega bo‘lganlarni esa aqli deb bo‘lmaydi; ularni ayyor yoki aldoqchi deb atash lozim” [1, 77-bet].

Bilish, mantiq va aql haqidagi Forobiyning fikrlari uning pedagog haqidagi qarashlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Unga ko‘ra, aqlga ega bo‘lish faqat bilimli va mantiqli bo‘lish bilan cheklanmaydi; u ma‘lum darajada axloqiy prinsiplar va axloqiy madaniyatga ega bo‘lish bilan yakunlanishi lozim. Shu nuqtai nazar asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi. Forobiyning aql, mantiq va axloq birligi haqidagi ushbu fundamental g‘oyasi zamonaviy kasbiy deontologiya va pedagogik identitet tushunchalari uchun mustahkam poydevor bo‘la oladi.

Agar bu fikrni bugungi pedagogika tili bilan “tarjima” qilsak, quyidagi mantiqiy zanjir hosil bo‘ladi:

1. “Bilim va mantiq” — kasbiy kompetentlik sifatida.

Forobiy aytgan “bilimli va mantiqli bo‘lish” bugungi kun pedagogining o‘z fani bo‘yicha nazariy bilimlari va dars o‘tish metodikasiga mos keladi. Identitet nuqtayi nazaridan qaraganda, talaba o‘zini mutaxassis sifatida his qilishi uchun, avvalo, intellektual salohiyatga ega bo‘lishi kerak. Ammo Forobiy uqtirganidek, bu hali to‘liq pedagogik identitet emas, balki uning bazaviy qismidir.

2. “Aql va axloq birligi” — deontologik filtr sifatida.

Forobiyning “aql axloqiy prinsiplar bilan yakunlanishi lozim” degan fikri kasbiy deontologiyaning aynan o‘zidir. Deontologik talqinda shunchaki aqli bo‘lish yetarli emas; aqlni ezgulikka, bolaning manfaatiga va kasbiy odobga yo‘naltirish haqiqiy pedagogik aql, ya‘ni pedagogik donolik hisoblanadi. Bu yerda aql — “instrument”, axloq esa — “kompas” vazifasini bajaradi.

Bugungi globallashtirish jarayonlari, axborot oqimining kuchayishi va turli mafkuraviy ta‘sirlarning ortib borishi yoshlarning ma‘naviy tarbiyasiga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirishni talab qilmoqda. Shu sababli Forobiyning ilmiy merosini o‘rganish zamonaviy

ta'lim tizimi uchun dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur maqola Abu Nasr Forobiyning falsafiy qarashlarida kasbiy deontologiya va pedagogik identitetning o'zaro bog'liqligi hamda aloqadorligini, shuningdek, uning bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini IMRAD talablari asosida tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Metodlar

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Tarixiy-falsafiy tahlil usuli.

Forobiyning yashagan davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar, uning ta'lim olish jarayonlari, Abu Bashar Matta ibn Yunus va Yuhanna ibn Xiyon kabi o'z davrining yuksak bilim va salohiyatiga ega shaxslaridan olgan ta'limi, shuningdek, uning ilmiy merosi va asarlaridagi aql hamda bilishning o'zaro aloqadorligi tarixiy-falsafiy kontekstda o'rganildi.

2. Qiyosiy tahlil usuli.

Forobiy qarashlari boshqa Sharq mutafakkirlari, xususan Ibn Sino va boshqa olimlarning falsafiy qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

3. Munozara usuli.

Turli ilmiy qarashlar o'rtasidagi munozaralar asosida aql, bilish, komil inson tushunchasi va ma'naviy tarbiya o'rtasidagi aloqadorlikning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilindi.

Natijalar

1. Forobiyning aql, ilm va fozil jamiyat haqidagi qarashlari bugungi kun bo'lajak pedagogining shaxsiy va kasbiy modelini yaratishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Forobiyning aqlni ikki turga ajratishi pedagogik tayyorgarlikning ikki ustuniga muvofiq keladi:

- **Nazariy aql (bilish):** bu bo'lajak pedagogning o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi va ta'lim nazariyasini o'zlashtirishidir. Bu pedagogik identitetning intellektual poydevorini shakllantiradi.

- **Amaliy aql (deontologiya):** bu bilimlarni kundalik pedagogik jarayonda, ayniqsa axloqiy va etik qarorlar qabul qilishda qo'llash qobiliyatidir. Aynan amaliy aql bo'lajak pedagogning kasbiy deontologik kompetentligini belgilaydi.

Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi g'oyalarni zamonaviy ta'lim muassasasiga ko'chirib, "fozil pedagog" obrazi yuzaga chiqadi. Mutafakkir ta'kidlaganidek, jamiyatning rivojlanishi insonlarning ma'naviy darajasiga bog'liq. Demak, ta'lim tizimining sifati bevosita pedagogning kasbiy o'zligini, ya'ni identitetini qanchalik yuksak ma'naviy darajada anglashiga bog'liqdir. Adolatli, bilimli va ma'naviy yetuk insonlar — bu deontologik madaniyatga ega bo'lgan, o'z kasbiy mas'uliyatini qalbiy ehtiyoj deb biluvchi pedagoglardir.

Forobiy talqinidagi "haqiqiy baxt-saodat"ga erishish pedagog uchun o'z kasbidan ma'naviy qoniqish hosil qilish va o'zini jamiyat uchun foydali shaxs sifatida his etishdir. Bu kasbiy identitetning oliy darajasi hisoblanadi. Amaliy aql esa shunchaki qoidalarni bilish emas, balki kutilmagan pedagogik nizolar yoki axloqiy dilemmalarda Forobiy ta'kidlaganidek, "haqiqat va adolat" tamoyili asosida yo'l tutish mexanizmidir. Nazariy bilim va axloqiy munosabat birlashgandagina talabada quruq kompetensiya emas, balki yaxlit deontologik madaniyat shakllanadi.

Shunday qilib, Forobiy bo'lajak pedagogning "aqliy qiyofasi"ni — bilimni va "axloqiy qiyofasi"ni — deontologiyasini yagona "ideal ustoz" modelida birlashtirgan.

2. Forobiyning falsafiy ta'limotining Yevropadagi qiyosiy tahlili.

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlandiki, dastlab Yevropa ilmiy an'anasida Forobiy Platon, Aristotel, Evklid va Ptolomey asarlariga sharhlar yozgani bilan mashhur bo'lgan. Ammo tahlillar shuni ko'rsatadiki, Forobiyning falsafiy ta'limoti mohiyat e'tibori bilan an'anaviy ilohiyot va kalomdan tubdan farq qiladi hamda ilmiy g'oyalar bilan sug'orilgan. Forobiyning bilish, mantiq va aql haqidagi fikrlari uning inson haqidagi ta'limoti uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U o'ra

asrlar sharoitida birinchi bo‘lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta‘limot yaratdi. Ushbu ta‘limotda ijtimoiy hayotning ko‘plab masalalari, ya‘ni davlat boshqaruvi, ta‘lim-tarbiya, axloq, ma‘rifat, diniy e‘tiqod, urush, mehnat va boshqa muammolar qamrab olingan.

3. Forobiyning falsafiy qarashlari va ma‘naviy tarbiya masalasi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Forobiyning qarashlari bugungi zamonaviy pedagogika uchun ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi davrda ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yoshlarni nafaqat bilimli va aqlli, balki ma‘naviy jihatdan ham yetuk shaxs sifatida kamol toptirish va tarbiyalashdir. Mutafakkir inson tarbiyasidagi muhim omillarni sanab o‘tadi va aqlli hamda bilimli insonni har doim ham ma‘naviy jihatdan kamol topgan shaxs sifatida baholab bo‘lmasligini ta‘kidlaydi. Bugungi yoshlar ongiga ma‘naviy tahdidlar kuchaygan bir davrda Forobiyning ta‘limoti shaxs kamolotida bilim va tarbiyaning uyg‘unligini muhim omil sifatida namoyon etadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Forobiy falsafasi nafaqat ilmiy meros sifatida, balki zamonaviy ta‘lim-tarbiya tizimi uchun ham muhim nazariy manba hisoblanadi. Forobiy o‘zining fozil jamoa haqidagi qarashlarida odamlarni turli belgilariga qarab guruhlarga ajratgan; u kishilarni diniy mazhab, millat yoki irq asosida emas, balki tabiiy xususiyatlari, qobiliyatlari, avvalo aqliy iqtidori hamda ilmlarni o‘rganish va hayotiy tajriba orttirish jarayonida egallagan bilim va ko‘nikmalariga qarab baholaydi. Shuningdek, u faqat buyruq va hukmga itoat qiladiganlarni yuqori darajada qadrlashga asoslangan yondashuvni keskin qoralaydi. Ana shu fikrlar bugungi jamiyatimizda yoshlarning ma‘naviy tarbiyasi va kamolotiga naqadar jiddiy va mas‘uliyat bilan yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

Forobiyning aql va fozil jamoa haqidagi qarashlarini bo‘lajak pedagoglar tayyorlash tizimiga tatbiq etish bo‘yicha quyidagi umumlashmalarga kelindi. Forobiy ta‘limotida aql nafaqat bilim egallash vositasi, balki haqiqatni anglash va jamiyat hayotida faol ishtirok etishning asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak pedagog uchun bu shunchaki intellektual salohiyat emas, balki kasbiy deontologik kompetentlikning shakllanishidir. Mutafakkir ta‘kidlaganidek, aqlning rivojlanishi ma‘naviy tarbiya bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda bu pedagogik etika qoidalarining talabaning shaxsiy qadriyatiga aylanish jarayonini ilmiy asoslaydi.

Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta‘limoti zamonaviy ta‘lim muassasasining ideal modeli sifatida baholanishi mumkin. Fozil jamoada komil inson fazilatlarini vujudga kelgani kabi, sog‘lom pedagogik muhitda ham bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy identiteti va axloqiy qiyofasi shakllanadi. O‘zaro munosabatlarning “yaxshilik”, ya‘ni pedagogik insonparvarlik yo‘nalishida rivojlanishi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi deontologik muloqotning oliy ko‘rinishidir.

Forobiy tomonidan aniqlangan axloqiy yetuklik fazilatlarini bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya davrida bo‘lajak pedagoglar uchun ma‘naviy “immunitet” vazifasini o‘taydi. Uning ilmiy merosi shunchaki tarixiy manba emas, balki yosh pedagoglarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini boyitish va ularda “Men — jamiyat me‘moriman” degan yuksak kasbiy identitetni shakllantirish uchun metodik dastur bo‘lib xizmat qiladi.

Forobiyning “komil inson” g‘oyasi ushbu tadqiqot doirasida “deontologik madaniyatga ega pedagog” sifatida talqin qilinadi. “Fozil jamoa” esa bo‘lajak pedagogning o‘zligini namoyon qiladigan professional muhit sifatida baholanadi. Shu bilan birga, Forobiyning ilmiy salohiyati nafaqat o‘tgan davr olimlari uchun qo‘llanma, balki bugungi zamonaviy globallashtirish sharoitida yoshlar ta‘lim-tarbiyasi va jamiyatning ma‘naviy rivojini boyituvchi dastur sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Ma‘naviyat yulduzlari. – Toshkent, 1999. – 66 b.
2. Jumayeva N. A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. – Buxoro, 2022. – 77 b.
3. Mamatov N., Hojiboyev A., Yuldasheva S. Falsafa: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2005. – 64 b.

4. Galston M. Politics and excellence: The political philosophy of Alfarabi. – Princeton: Princeton University Press, 1990. – 252 p.
5. Forobiy A. N. Fozil odamlar shahri / tarj. va tahrir O. Shodmonov. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
6. Forobiy A. N. Aql-ma’naviyat va saodat haqida risolalar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015.
7. Yoqubov A. Sharq mutafakkirlari tarbiyasi: Forobiy, Ibn Sino, G‘azzoliy. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
8. Nosirxo‘jayeva G. Forobiy asarlarida adolat va ma’naviy yuksalish muammolari // Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025.
9. Xamidov O. K., Alimjonova M. B. Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari // Obrazovanie, nauka i innovatsionnye idei v mire. – 2025.
10. Jo‘raqulov J. J., Jo‘raqulov J. Forobiyning “Fozil shahar” konsepsiyasi va zamonaviy tarbiya // Tadqiqotlar. – 2025..